

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-sonli qarorining 7-ilovasiga asosan rivojlantirish dasturlari va budget xarajatlarini maqsadli indikatorlarining 2025-yil I-chorak ijrosi to'g'risida

HISOBOT

T/r	Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2025-yil jami	2025-yil aniqlangan reja	shundan: 1-chorak			Izoh
					ijro	farqi (-kam, ko'p)	foizda	
2.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	mlrd so'm	6 280,0	6 280,0	1 135,6	-5 144,4	18 %	
	Strategik maqsadi: Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.							
2.1.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tizimida respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning joriy xarajatlari bo'yicha erishiladigan natijalar.	mlrd so'm	5 500,2	5 500,2	991,8	-4 508,4	18 %	
	Yakuniy natija ko'rsatkichi							
2.1.1	Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish (jami bitiruvchilar soniga nisbatan) darajasi.	foiz	44,0	44,0	0,0	-44,0	0 %	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qarori, 7-ilovasi bilan tasdiqlangan Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2024-2026-yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarining 2.1-bandida 2024-yilda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini (jami bitiruvchilar soniga nisbatan) 43 foizga yetkazish belgilangan. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2024/2025-o'quv yili qabuli natijalariga ko'ra 43 foizni tashkil etib, belgilangan yillik reja 100 foizga bajarilgan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining</p>

								<p>Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan "Maqsadli ko'rsatkichlar"ga muvofiq yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 2025-yilda 44 foizga yetkazish belgilangan.</p> <p>Topshiriqni bajarish muddati 2025-yilning oktyabr oyi etib belgilangan. Topshiriq ijrosi yuzasidan oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv-metodik ta'minotidan kelib chiqib, keyingi 2025/2026-o'quv yili uchun qabul parametrlari bo'yicha shakllantirilgan dastlabki takliflar o'rganilmoqda. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi dasturida belgilangan muddatda 2025/2026 o'quv yili qabuli natijasiga ko'ra 44 foizga yetkazish rejalashtirilgan.</p>
2.1.2	Xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingida birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirgan respublikadagi oliy ta'lim muassasalari soni.	ta	1	1	0	-1	0 %	<p>Nufuzli QS va THE xalqaro reyting tashkilotlari mintaqaviy ekspertlari ishtirokida respublika oliy ta'lim tashkilotlari reyting ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tahlil natijalari asosida 10 ta oliy ta'lim tashkiloti tanlab olinib, ularni dunyo oliygohlari Top-1000 ro'yxatiga kiritish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.</p> <p>Jumladan, reyting tashkilotlari bilan zarur konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha hamkorlik shartnomasini imzolanib, oliygohlar uchun "Oliy ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligi hamda xalqaro reytinglarda ustunligini ta'minlash" mavzusida seminar-trening tashkil etiladi.</p>
2.1.3	Ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tadigan oliy ta'lim muassasalari soni.	ta	5	5	1	-4	20 %	<p>2025-yil 1-chorak yakunlari bo'yicha Toshkent davlat pedagogika universitetining 4 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilib, tegishli sertifikatlar olindi.</p>
2.1.4	Oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrov darajasi.	foiz	93,0	93,0	0,0	-93,0	0 %	<p>Oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 2024/2025-o'quv yili qabuli natijalariga ko'ra 92 foizni tashkil etdi. 2025/2026-o'quv yili qabul jarayonlari joriy yilning avgust-sentyabr oylarida amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2025-yilning 4-choragida qamrov darajasini 93 foizga yetkazish rejalashtirilgan.</p>

2.1.5	Umumiy o'рта ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilarini kasbiy ta'lim tashkilotlariga qabul qilinish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan).	foiz	23,0	23,0	0,0	-23,0	0 %	Hududiy hokimlik va ish beruvchilarning takliflari asosida kasbiy ta'lim tashkilotlariga 2025/2026 o'quv yil uchun qabul parametrlari shakllantirildi. Iqtisodiyot va moliya vaziriligi bilan kelishgan holda umumiy o'рта ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari negizida qabul reja joriy yilning iyun oyiga qadar tasdiqlanadi hamda qabul jarayonlari joriy yilning avgust oyida yakunlanishi rejalashtirilmoqda.
2.1.6	O'рта maxsus va kasbiy ta'lim muassasalarining malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlari ulushi (jami pedagoglar soniga nisbatan).	foiz	33,0	33,0	30,8	-2,2	93 %	2025-yilning 1-choragi yakuniga ko'ra O'рта maxsus, kasbiy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 28 035 nafar pedagog kadrlardan 8 639 nafariga malaka toifasi berildi va malaka toifasiga ega pedagog kadrlar ulushi 30,8 foizga yetkazildi. Yil yakuniga qadar belgilangan reja to'liq bajariladi.
Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi								
2.1.7	Oliy ta'limga kirgan o'quvchilar soni.	nafar	219 025	219 025	0	-219 025	0 %	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qarori, 7-ilovasi bilan tasdiqlangan Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2024-2026-yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarining 2.1-bandida oliy ta'limga kirgan o'quvchilar sonini 2024-yilda 207 415 nafarga yetkazish belgilangan. 2024/2025 o'quv yili davlat oliy ta'lim muassasalariga jami 208 039 nafar talaba qabul qilinib, yillik reja 100,3 foizga bajarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan Maqsadli ko'rsatkichlarga muvofiq yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 2025-yilda 44 foizga yetkazish belgilangan. Topshiriqni bajarish muddati 2025-yilning oktabr oyi

								etib belgilangan. Topshiriq ijrosi yuzasidan oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi, professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv-metodik ta'minotidan kelib chiqib, keyingi 2025/2026-o'quv yili uchun qabul parametrlari bo'yicha shakllantirilgan dastlabki takliflar o'rganilmoqda. 2025/2026 o'quv yilida oliy ta'limga kirgan o'quvchilar soni qabul natijasiga ko'ra 219 025 nafarga yetkaziladi.
2.1.8	Kasbiy ta'lim tashkilotlariga kirgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari soni.	nafar	140 901	140 901	0	-140 025	0 %	Hududiy hokimlik va ish beruvchilarning takliflari asosida kasbiy ta'lim tashkilotlariga 2025/2026 o'quv yil uchun qabul parametrlari shakllantirildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari negizida qabul reja joriy yilning iyun oyiga qadar tasdiqlanadi hamda qabul jarayonlari joriy yilning avgust oyida yakunlanishi rejalashtirilmoqda.
2.1.9	O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining attestatsiyaga jalb etiladigan o'qituvchilari soni.	nafar	8 000	8 000	0	-8 000	0 %	Joriy yilning may oyida o'rta maxsus, kasbiy ta'lim muassasalarining 6 624 nafar pedagog kadrlarini malaka toifasini olishlari uchun navbatdagi attestatsiyadan o'tkazilishi rejalashtirilgan. Yil yakuniga qadar maqsadli indikatorni rejasi to'liq bajariladi.
2.1.10	Kasbiy ta'lim tashkilotlarining attestatsiyaga jalb etiladigan ishlab chiqarish ta'limi ustalari soni.	nafar	3 000	3 000	0	-3 000	0 %	Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha vazirlikning 2025-yil 5-martdagi "Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi 12-son buyrug'i tasdiqlanib, ushbu buyruq bugungi kunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish jarayonida.
2.1.11	Kasb-hunar maktablariga kirgan o'quvchilar soni.	nafar	143 901	143 901	0	-143 901	0 %	Hududiy hokimlik va ish beruvchilarning takliflari asosida kasbiy ta'lim tashkilotlariga 2025/2026 o'quv yil uchun qabul parametrlari shakllantirildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari negizida qabul reja joriy yilning iyun oyiga qadar tasdiqlanadi hamda qabul jarayonlari joriy yilning avgust oyida yakunlanishi rejalashtirilmoqda.

2.1.12	Ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni.	nafar	16 000	16 000	17 430	1 430	109 %	Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlarning faoliyati samaradorligi (KPI) ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Mazkur ko'rsatkichda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati (ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilari ulushi) ko'rsatkichi shakllantirildi.
2.1.13	Tarjima qilinadigan va o'quv jarayoniga tatbiq etiladigan xorijiy adabiyotlar soni.	dona	53	53	22	-31	42 %	2025-yilning 1-choragi yakuniga ko'ra tarjima ishlari yakunlangan xorijiy adabiyotlar soni 22 ta , jumladan, "Simsiz aloqa muhandislik texnologiyalarning asoslari", "Dala geologiyasi 1-jild", "Geodeziya", "Simsiz aloqa", "Yo'l harakatini modellashtirish va boshqarish", "Logistika (Asoslar-Mashqlar-Tadqiqotlar)", "Biotexnologiyalar asoslari" va "Haykaltaroshlar uchun anatomiya" kabi adabiyotlar belgilangan tirajlarda nashrdan chiqarildi.
2.2.	Dastur nomi: Oliy ta'lim muassasasida magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash xarajatlari dasturi (PF-87-son, 07.03.2022-y.).	mlrd so'm	125,0	125,0	0,0	-125,0	0 %	
2.2.1	Dastur maqsadi: Xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash.							
Yakuniy natija ko'rsatkich								
2.2.2	Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning ulushi (jami magistrlar soniga nisbatan).	foiz	27,1	27,1	35,2	8,1	130 %	
Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi								
2.2.3	Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar soni.	nafar	6 619	6 619	10 020	3 401	151 %	
2.2.4	Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalari soni.	nafar	24 425	24 425	28 403	3 978	116 %	
2.3.	Dastur nomi: Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar dasturi (Vazirlar Mahkamasining 563-son qarori, 09.09.2021-y.).	mlrd so'm	300,0	300,0	39,9	-260,1	13 %	Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihalari bo'yicha 1-chorak davomida 39,9 mlrd.so'm mablag' sarflandi.
2.3.1	Dastur maqsadi: respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish, darajasini oshirish, barcha qulayliklarga ega							

	bo'lgan zamonaviy talabalar turar joylarini qurish, talabalar uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.							
	Yakuniy natija ko'rsatkich							
2.3.2	Talabalarni turar joyi bilan qamrab olish darajasi (jami ehtiyojga nisbatan).	foiz	52,2	52,2	54,0	1,8	103 %	
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi							
2.3.3	Respublika bo'yicha talabalar turar joylari sig'imi.	o'rin	145 241	145 241	146 117	876	101 %	
2.3.4	Respublika bo'yicha talabalar turar joylariga ehtiyoj.	o'rin	278 100	278 100	163 013	-115 087	59 %	
2.4.	Dastur nomi: Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar dasturi (Vazirlar Mahkamasining 563-son qarori, 09.09.2021-y.).	mlrd so'm	50,0	50,0	6,3	-43,7	13 %	Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihalari bo'yicha 1-chorak davomida 6,3 mlrd. so'm mablag' sarflandi.
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi							
2.4.1	Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan, ishga tushirilgan va subsidiya ajratilayotgan talabalar turar joylari sig'imi.	o'rin	12 215	12 215	0	-12 215	0 %	2025-yilning 1-choragi yakuniga ko'ra Davlat-xususiy sheriklik asosida 30 477 o'rinli 57 ta loyihalar amalga oshirilmoqda. 2025-yil yakuniga qadar maqsadli indikatorlarda keltirilgan topshiriqlar ijrosi to'liq bajariladi.
2.5.	Dastur nomi: "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida beriladigan har oylik subsidiyalar ajratish dasturi (Vazirlar Mahkamasining 312-son qarori, 07.06.2022-y.).	0	5,0	5,0	0,0	-5,0	0 %	
2.5.1	Dastur maqsadi: yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning bandligiga ko'maklashish va sharoitlar yaratish.							
	Yakuniy natija ko'rsatkich							
2.5.2	"Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar ulushi (jami o'quvchilar soniga nisbatan).	foiz	0,3	0,3	0,17	-0,13	57 %	Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalariga kasbiy ta'lim tashkilotlaridagi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'quvchi yoshlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida amaliyotini o'tagan davri uchun subsidiya mablag'larini ajratilishi choralarini ko'rish bo'yicha vazirlikning topshiriq xati yuborildi.
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi							

2.5.3	"Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar soni.	nafar	1 100	1 100	625	-475	57 %	Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalariga kasbiy ta'lim tashkilotlaridagi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'quvchi yoshlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida amaliyotini o'tagan davri uchun subsidiya mablag'larini ajratilishi choralarini ko'rish bo'yicha vazirlikning topshiriq xati yuborildi.
2.5.4	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni.	nafar	384 255	384 255	353 047	-31 208	92 %	Hozirda kasbiy ta'lim tashkilotlarida jami 353 047 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Joriy yilning 4 choragida qabul jarayonlari yakuni bo'yicha ma'lumotlar yangilanadi.
2.6.	Dastur nomi: Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturi (PF-6097-son, 29.10.2020-y.).	mlrd so'm	715,0	715,0	120,0	-595,0	17 %	
2.6.1	Dastur maqsadi: Ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish, ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida ilmiy mahsulotlar hajmi va innovatsion mahsulotlar turlarini kengaytirish faoliyatini muntazam ravishda muvofiqlashtirish.							
Yakuniy natija ko'rsatkich								
2.6.2	Tanlovga tayyorlash dasturidan muvaffaqiyatli o'tgan startap loyihalarni moliyalashtirish natijasida yaratilgan mahsulot va xizmatlar turlarini soni.	ta	36	36	12	-24	33 %	4 ta loyiha ijrochi tashkilotlari tomonidan 12 hil mahsulot va xizmatlar yaratilgan.
2.6.3	Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan mahsulot va xizmatlar turlari soni.	ta	150	150	135	-15	90 %	Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan mahsulot va xizmatlar soni 135 taga yetkazilgan. 2025-yil yakuniga qadar 150 taga yetkazish ta'minlanadi. (O'sib borish tartibida qo'yilgan).
2.6.4	Davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy loyihalar sonida muhandislik yo'nalishidagi tadqiqotlar ulushi.	foiz	14,0	14,0	2,1	-11,9	15 %	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida e'lon qilingan tanloviga muhandislik yo'nalishida 21 ta loyiha talabnomasi kelib tushdi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 19-fevraldagi 67 va 68-sonli buyruqlariga asosan muhandislik yo'nalishida umumiy qiymati 5,2 mlrd so'm bo'lgan 4 ta ilmiy loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi. Bu umumiy ilmiy loyihalarning 2,1 foizni tashkil etadi.

2.6.5	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ilmiy tashkilotlar laboratoriyalarini zamonaviy ilmiy laboratoriya asbob-uskunalar ulushi (jami xarid qilinadigan uskunalar soniga nisbatan).	foiz	25,0	25,0	100	75,0	400 %	2025-yil 19-mart holatiga ko'ra, jami 6 turdagi laboratoriya asbob-uskunalarini xarid qilingan bo'lib, ularning barchasi Toshkent viloyatida joylashgan Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti uchun mo'ljallangan. Hozirgi kunda Yetkazib beruvchilar bilan shartnoma shartlari muhokama qilinib, shartnoma loyihasi tayyorlanmoqda.
2.6.6	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan yosh olimlarni ilmiy stajirovkalarga yuborish ulushi (jami tashkil etiladigan maqsadli tanlov natijalariga nisbatan).	foiz	10,0	10,0	76	66,0	760 %	2025-yil 19-mart holatiga 17 nafar yosh olim jo'natilgan bo'lim, viloyatlardagi yosh olimlarning ulushi 76 % (13 nafar) yosh olimni tashkil etadi. Jumladan: Samarqand viloyatidan 11 nafar va Navoiy viloyatidan 2 nafar .
Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi								
2.6.7	Tanlovga tayyorlash dasturlaridan (inkubatsiya/akseleratsiya) o'tkazilgan startap loyihalar soni.	ta	60	60	15	-45	25 %	43 ta tanlovga tayyorlash dasturlaridan (inkubatsiya/akseleratsiya) 15 ta startap loyihalar o'tgan.
2.6.8	Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish maqsadida bajarilayotgan loyihalar soni.	ta	270	270	248	-22	92 %	Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish maqsadida bajarilayotgan innovatsion loyihalar soni 248 taga yetkazilgan. 2025-yilda innovatsion loyihalar tanlovi o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, yil yakuniga qadar ularni 270 taga yetkazish ta'minlanadi. (O'sib borish tartibida qo'yilgan).
2.6.9	Davlat ilmiy dasturlari doirasida muhandislik yo'nalishidagi bajariladigan ilmiy loyihalar soni.	ta	43	43	4	-39	9 %	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 19-fevraldagi 67 va 68-sonli buyruqlariga asosan muhandislik yo'nalishida 4 ta ilmiy loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi.
2.6.10	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ilmiy tashkilotlar ilmiy laboratoriyalar uchun xarid qilinadigan uskunalar soni.	ta	30	30	6	-24	20 %	2025-yil 19-mart holatiga Toshkent viloyatida joylashgan Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti uchun 6 turdagi laboratoriya asbob-uskunalar bo'yicha xaridi amalga oshirildi. Hozirgi kunda Yetkazib beruvchilar bilan shartnoma shartlari muhokama qilinib, shartnoma loyihasi tayyorlanmoqda.

Byudjet dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va ularning
ijrosini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i

 A. Mamadaliyev